# NAVOIY VILOYATI NUROTA TUMANI HOKIMI
# Q A R O R I

210700, Nurota t., Islom Karimov sh. k 48, tel: (79)523-13-42, nurota@nv.uz

2023 - yil 14 - mart 32-5-74-Q/23 Nurota tumani hokimligi

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-fevraldagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi PF-27-sonli Farmoni hamda viloyat hokimining 2023-yil 11-martdagi 30-5-0-Q/23-sonli qarori ijrosini ta'minlash to'g'risida**

2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida belgilab berilgan vazifalarga muvofiq aholining hayot darajasini yanada yuksaltirish, ta'lim sifatini ilg'or xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, barqaror iqtisodiy o'sishga erishish hamda kambag'allikni qisqartirish borasidagi islohatlarimizni yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan ustuvor yo'nalishlar hamda viloyat hokimining 2023-yil 11-martdagi 30-5-0-Q/23-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 25, 27-moddalariga asosan,

**QAROR QILAMAN:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-fevraldagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi PF-27-sonli Farmoni hamda viloyat hokimining 2023-yil 11-martdagi 30-5-0-Q/23-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur Farmoni bilan "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi" (keyingi o'rinlarda – Davlat dasturi) tasdiqlanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Quyidagilar:

Nurota tumanida "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi" ijrosini ta'minlash yuzasidan kompleks chora-tadbirlar dasturi (keyingi o'rinlarda – Kompleks chora-tadbirlar dasturi) 1-ilovaga muvofiq;

Nurota tumanida"2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi" ijrosini ta'minlash yuzasidan kompleks chora-tadbirlar dasturini amalga oshirishni muvofiqlashtiruvchi tuman komissiyasi (keyingi o'rinlarda – muvofiqlashtiruvchi tuman komissiyasi) tarkibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Muvofiqlashtiruvchi tuman komissiyasi:

tuman hokimining oʻrinbosarlari A.Boʻriyev, Sh.Vafoyev, G.Bobomurodova ichki ishlar boʻlimi (U.Abdurahmonov), Yoshlar ishlari agentligi tuman boʻlimi (U.Usmonov) bilan birgalikda:

davlat dasturi ijrosini samarali, qatʼiy tartib-intizom asosida tashkil etib, uch kun muddatda tuman kesimida 2022-2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga eʼtibor va sifatli taʼlim yili”da amalga oshirish boʻyicha tegishli dasturlarni ishlab chiqilishini;

hududiy davlat va xoʻjalik boshqaruvi organlari, aloqador tashkilot va korxona, muassasalarining davlat dasturi hamda kompleks chora-tadbirlar dasturida nazarda tutilgan tadbirlarni amalga oshirishi boʻyicha faoliyatini muvofiqlashtirishni, shuningdek, joylarda ijro etilishi ustidan tizimli nazoratni olib borishni taʼminlasin.

5. Tuman hokimi oʻrinbosarlari, tumandagi korxona, tashkilot va muassasalarga:

davlat dasturi hamda kompleks chora-tadbirlar dasturida nazarda tutilgan tadbirlardan kelib chiqib, amalga oshiriladigan ishlar yuzasidan oʻzlarining tegishli chora-tadbirlar dasturlarini ishlab chiqish hamda davlat dasturi hamda kompleks chora-tadbirlar dasturida belgilangan vazifalar ijrosini oʻz vaqtida va samarali ijro etilishini taʼminlash;

davlat dasturi hamda kompleks chora-tadbirlar dasturi ijrosi boʻyicha keng jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari ishtirokida muntazam ravishda masʼul shaxslarning hisobotini eshitib borish;

davlat dasturi hamda kompleks chora-tadbirlar dasturining ijrosini har oyda xalq deputatlari tuman Kengashi yigʻilishlarida muhokama qilib borilishini tashkil etish;

davlat dasturi hamda kompleks chora-tadbirlar dasturi ijrosi toʻgʻrisidagi umumlashtirilgan maʼlumotlarni har oyning 25-sanasiga qadar muvofiqlashtiruvchi tuman komissiyasiga taqdim etib borish topshirilsin.

6. Tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va maʼnaviy maʼrifiy ishlar boʻyicha oʻrinbosari Sh.Vafoyev, tuman tibbiyot birlashmasi (B.Xidirov), tuman maktabgacha va maktab taʼlimi boʻlimi (Lavozimiga koʻra), tumandagi kasb-hunar maktablari (B.Togʻayev, Gʻ,Xolbekov) bilan birgalikda tumanda sogʻliqni saqlash, taʼlim sifatini oshirish boʻyicha davlat dasturi hamda kompleks chora-tadbirlar dasturida belgilangan vazifalar doirasida tizimli choralar koʻrib borsin.

7. Tuman hokimining oʻrinbosarlari, kompleks rahbarlari davlat dasturi hamda kompleks chora-tadbirlar dasturi ijrosini taʼminlash borasida oʻtkaziladigan yigʻilishlarda bandma-band tahlil qilib, amalga oshirilayotgan ishlarni tanqidiy koʻrib borsin.

8. Tuman hokimligi axborot xizmati (L.Mansurov) va “Nurnoma” gazetasi tahririyati (L.Bozorov)larga Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni mazmun-mohiyatini hamda davlat dasturi doirasida amalga oshirilayotgan ishlarni ommaviy axborot vositalari orqali keng yoritib borish tavsiya etilsin.

9. Ushbu qaror ijrosini samarali tashkil etishga masʼul va shaxsiy javobgar etib tuman hokimi oʻrinbosarlari belgilansin.

10. Mazkur qaror ijrosining nazoratini oʻz zimmamda qoldiraman.

**Tuman hokimi** **A.Fayziyev**

Nurota tuman hokimining
2023 yil 14 martdagi
32-5-74-Q/23-son qaroriga
1-ilova

**Nurota tumanida 2022–2026 yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid**

## KOMPLEKS CHORA-TADBIRLAR DASTURI

| T/r | Dasturning tegishli bandlari, ustuvor yo’nalishlar, maqsadlar va vazifalari | Amalga oshirish mexanizmlari | Amalga oshirish shakli | Muddati | Amalga oshirish xarajatlari (moliyalashtirish manbalari) | Nazorat qiluvchilar | Mas’ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| **I. INSON QADRINI YUKSALTIRISH VA ERKIN FUQAROLIK JAMIYATINI YANADA RIVOJLANTIRISH ORQALI XALQPARVAR DAVLAT BARPO ETISH** | | | | | | | |
| **1-maqsad: Mahalla instituti faoliyatining samaradorligini oshirish, uni jamoatchilik boshqaruvi va nazoratining tayanch bo’g’iniga aylantirish** | | | | | | | |

| T/r | Dasturning tegishli bandlari, ustuvor yo'nalishlar, maqsadlar va vazifalari | Amalga oshirish mexanizmlari | Amalga oshirish shakli | Muddati | Amalga oshirish xarajatlari (moliyalashtirish manbalari) | Nazorat qiluvchilar | Mas'ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1. | **1-band:**<br>Fuqarolarning **o'z mahallasi hayotidagi ishtirokini kuchaytirish** hamda davlat organlari va mahallalar o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aloqalarni yo'lga qo'yish. | "**Raqamli mahalla" markazini** tashkil etish hamda **"Ijtimoiy mahalla" axborot tizimini** joriy etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish. Bunda:<br>mahalladagi aholi va tadbir-korlarning mavjud muammo va kamchiliklarini "**xonadonbay**" o'rganish bo'yicha **so'rovnomalarni** o'tkazish, **natijalarini** tegishli davlat organlari va tashkilot-lariga yuborish hamda ko'rilgan choralar to'g'risidagi ma'lumot-larni **axborot tizimiga kiritish**;<br>"Temir daftar"ga kiritilgan oilalar hamda "Ayollar daftari"ga kiritilgan xotin-qizlar va "Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlarga ko'rsatilgan yordam haqidagi ma'lumotlarni axborot tizimiga kiritib borish;<br>mahallalarning hududi, maydoni, infratuzilmasi, chegarasi aks etgan xaritasi, xonadonlar joylashuvi, **raqamlari** va ko'cha nomlarining **yagona bazasini** yuritish;<br>"**Ijtimoiy mahalla**" **axborot tizimi** hamda "**Elektron hukumat**" **tizimining** idoralararo integrasiyalashuv platformasi orqali **40 turdagi** ma'lumotlarning yagona bazasini yuritish nazarda tutiladi. | Normativ-huquqiy hujjat loyihasiga takliflarni kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligiga kiritish | 2023 yil aprel | Mahallaning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etish,<br>hokim yordamchilari faoliyatini qo'llab-quvvatlash, xotin-qizlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash, yoshlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash jamg'armalari mablag'lari | Tuman hokimining birinchi o'rinbosari **A.Bo'riyev** | Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi**,**<br>Iqtisodiyot va moliya bo'limi **S.Haydarov** |

| T/r | Dasturning tegishli bandlari, ustuvor yo'nalishlar, maqsadlar va vazifalari | Amalga oshirish mexanizmlari | Amalga oshirish shakli | Muddati | Amalga oshirish xarajatlari (moliyalashtirish manbalari) | Nazorat qiluvchilar | Mas'ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 2. | **2-band:** Joylarda **ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal etishda mahallalar rolini** oshirish. | Tumandagi **ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal etishda mahallalar rolini** oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish. Bunda: **mahallalarga** Xalq deputatlari tuman Kengashi sessiyalari kun tartibiga ko'rib chiqish uchun taklif kiritish, Xalq deputatlari tuman Kengashi qarorlari loyihalarini ishlab chiqish va muhokama qilishda ishtirok etish huquqini taqdim etish. har bir mahallaning **"o'sish nuqtalari"** va ularda yashovchi aholining ehtiyojidan kelib chiqib, **mahallaning moliyaviy mustaqil-ligini kuchaytirish** maqsadida mahallalar qoshida tadbirkorlik sub'ektlarini tashkil etish.<br>**3.** Mahallalarda **"Tadbirkorlar kengashlari"ni tashkil etish,** ularning maqomi va vazifalarini belgilash nazarda tutiladi. | Normativ-huquqiy hujjat loyihasiga takliflarni kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligiga kiritish | 2023 yil may | – | Xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati **O.Safarov** *(kelishuv asosida)* | Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi**,** Adliya bo'limi **U.Suvonov** |
| **6-maqsad: Davlat boshqaruvi tizimida ma'muriy apparatni ixchamlashtirish va ish jarayonlarini maqbullashtirish** | | | | | | | |
| 3. | **10-band:** **Yangi O'zbekiston ma'mu-riy islohotlarining ikkinchi bosqichi** doirasida hududlardagi boshqaruv tizimini isloh qilish. | Mahalliy ijro hokimiyati organlarining faoliyatini chuqur tahlil qilgan holda ularning faoliyatini takomillashtirish va tashkiliy tuzilmasini maqbullashtirish, bo'ysunuv tizimini qayta ko'rib chiqish bo'yicha takliflarni tayyorlash. | Normativ-huquqiy hujjat loyihasiga takliflarni Adliya vazirligiga kiritish | 2023 yil aprel | – | Tashkiliy-kadrlar guruhi | Adliya bo'limi **U.Suvonov**, tuman hokimligi |
| **11-maqsad: Xalq bilan muloqot mexanizmlarini takomillashtirish** | | | | | | | |

| T/r | Dasturning tegishli bandlari, ustuvor yo'nalishlar, maqsadlar va vazifalari | Amalga oshirish mexanizmlari | Amalga oshirish shakli | Muddati | Amalga oshirish xarajatlari (moliyalashtirish manbalari) | Nazorat qiluvchilar | Mas'ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 4. | **20-band:**<br>Hukumatning **hududlar bilan ishlash tizimini takomillash-tirish**, hududlarda aholi tomoni-dan ko'tarilayotgan **dolzarb muammolarni tezkor hal etish** maqsadida **har oyda kamida bir marotaba** Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida Hukumat a'zolari ishtirokida **"Hukumat kuni"ni o'tkazib borish amaliyotini** yo'lga qo'yish. | Tumanda **"Hukumat kuni"ni o'tkazib borish amaliyotini** yo'lga qo'yish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish. Bunda:<br>**Hukumat kuni"**ni o'tkazish bo'yicha reja-grafikni va unda ishtirok etuvchi mansabdor shaxslar ro'yxatini shakllantirish.<br>**"Hukumat kuni"** doirasida muhokama qilinadigan muammolarni tahlil qilish va uni Hukumat a'zolariga o'rganish uchun yetkazish bo'yicha sohalar kesimidagi viloyatning doimiy ishchi guruhini shakllantirish kabi masalalar nazarda tutiladi. | Normativ-huquqiy hujjat loyihasiga takliflarni Adliya vazirligiga kiritish | 2023 yil mart<br><br>2023 yil aprel | – | Tuman hokimining birinchi o'rinbosari **A.Bo'riyev** | Adliya bo'limi **U.Suvonov**, tuman hokimligi |
| **12-maqsad: Ta'sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish** | | | | | | | |

| T/r | Dasturning tegishli bandlari, ustuvor yo'nalishlar, maqsadlar va vazifalari | Amalga oshirish mexanizmlari | Amalga oshirish shakli | Muddati | Amalga oshirish xarajatlari (moliyalashtirish manbalari) | Nazorat qiluvchilar | Mas'ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 5. | **21-band:** Vazirlik, idora va tashkilotlar tomonidan **aholi e'tirozlariga sabab bo'layotgan tizimli masalalarni aniqlash** va ularga echim topish ishlari sifatini oshirish, aholi muammolari va murojaatlar bilan ishlashda **jamoatchilik nazoratini** kuchaytirish. | Tuman xalq qabulxonasi huzurida taniqli huquqshunoslar, mahalla raislari, ziyolilar, ijodkorlar, jurnalistlar va blogyerlardan tarkib topgan **"Xalq ovozi" jamoatchilik kengashlari** faoliyatini yo'lga qo'yish, bunda:<br>eng ko'p e'tirozlarga sabab bo'layotgan **masalalarni muhokama qilish**, ular bo'yicha tegishli **davlat idoralari rahbarlarini hisobotini eshitish** hamda mazkur **muammolarni** bartaraf etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatish;<br>joylarda **ijtimoiy-ma'naviy muhitni yaxshilash** maqsadida jamoatchilik orasida mamlakati-mizda **jiddiy ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etish** yuzasidan amalga oshirilayotgan va rejalashtirilgan tadbirlar bo'yicha targ'ibot ishlarini tashkil etish;<br>fuqarolar tomonidan ko'tarilayotgan masalalarni tegishli soha mutaxassislari va jamoatchilik vakillari ishtirokida muhoka-ma qilish, ular bilan tushuntirish ishlari olib borish, **e'tirozlarga sabab bo'layotgan holatlar bo'yicha tegishli tashkilotlarga axborot va takliflar** kiritish. | Tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar | 2023 yil may | – | Tuman hokimi o'rinbosarlari, tuman hokimligi ijro intizomi nazorati bo'limi **H.Ikromjonov** | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Nurota tumanidagi xalq qabulxonasi **Sh.Asatov**, xalq deputatlari tuman Kengashi, tuman Adliya bo'limi **U.Suvonov** |
| **II. MAMLAKATIMIZDA ADOLAT VA QONUN USTUVORLIGI TAMOYILLARINI TARAQQIYOTNING ENG ASOSIY VA ZARUR SHARTIGA AYLANTIRISH** | | | | | | | |
| **14-maqsad: Qonun ustuvorligi va konstitusiyaviy qonuniylikni ta'minlash hamda inson qadrini ushbu jarayonning bosh mezoni sifatida belgilash** | | | | | | | |

| T/r | Dasturning tegishli bandlari, ustuvor yo'nalishlar, maqsadlar va vazifalari | Amalga oshirish mexanizmlari | Amalga oshirish shakli | Muddati | Amalga oshirish xarajatlari (moliyalashtirish manbalari) | Nazorat qiluvchilar | Mas'ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 6. | **24-band:** Bolalarga nisbatan **tazyiq va zo'ravonlik o'tkazishning oldini olish**ga qaratilgan huquqiy mexanizmlarni kuchaytirish. | **1.** Bolalarni **tazyiq va zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish**da davlat organlarining vakolatlarini aniq belgilash bo'yicha takliflar ishlab chiqish. **2.** Bolalarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik holatlarining oldini olish, ularni aniqlash, tazyiqlarga chek qo'yish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish. **3.** Tazyiq va zo'ravonlikka uchragan bolalarga **kompleks yordam** ko'rsatishni yo'lga qo'yish bo'yicha takliflar ishlab chiqish. | Qonun loyihasiga takliflarni Adliya vazirligiga kiritish | 2023 yil iyul | – | Tuman hokimi o'rinbosari **Sh.Vafoyev,** Tuman hokimligi bolalarni himoya qilish sho'basi **R.Muhiddinov,** | Tuman adliya bo'limi **U.Suvonov,** tuman prokuraturasi **F.Norov,** ichki ishlar bo'limi **U.Abduraxmonov,** maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi**,** tuman hokimligi |
| **18-maqsad: Sud va boshqa organlar hujjatlarining o'z vaqtida va to'liq ijrosini ta'minlash** | | | | | | | |
| 7. | **37-band:** Ijro ishini yuritishning **soddalashtirilgan tartibi**ni yanada takomillashtirish. | Ijro ishini yuritishning soddalashtirilgan tartibini qarzdor jismoniy shaxslardan **kommunal xizmatlar uchun qarzdorlikni undirish** to'g'risidagi sud hujjatlariga nisbatan tatbiq etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish. | Normativ-huquqiy hujjat loyihasiga takliflarni bosh prokuratura va adliya vazirligiga kiritish | 2023 yil oktyabr | – | Tashkiliy-kadrlar guruhi **X.To'ychiyev** | Tuman prokuraturasi **F.Norov,** tuman adliya bo'limi **U.Suvonov** |
| **III. MILLIY IQTISODIYOTNI JADAL RIVOJLANTIRISH VA YUQORI O'SISH SUR'ATLARINI TA'MINLASH** | | | | | | | |
| **21-maqsad: Iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash orqali kelgusi besh yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotni – 1,6 barobar (1750 dollardan 2800 dollarga) va 2030 yilga borib aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadni 4 ming AQSH dollaridan oshirish hamda "daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar" qatoriga kirish uchun zamin yaratish** | | | | | | | |

| T/r | Dasturning tegishli bandlari, ustuvor yo'nalishlar, maqsadlar va vazifalari | Amalga oshirish mexanizmlari | Amalga oshirish shakli | Muddati | Amalga oshirish xarajatlari (moliyalashtirish manbalari) | Nazorat qiluvchilar | Mas'ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 8. | **40-band:**<br>Iqtisodiyotning yuqori o'sish sur'atlarini saqlab qolish, **makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash**. | 1. 2023 yilda tumanda **makroiqtisodiy** iqtisodiy ko'rsatgichni o'sish sur'atlarini saqlab qolish:<br>Jumladan:<br>Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 360,6 mlrd.so'mga, o'sish sur'atini 106,5 %<br>Hududiy sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 339,2 mlrd.so'mga, o'sish sur'atini 109,5 %.<br>Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqari hajmini 1561,1 mlrd. so'mga, o'sish sur'atini 102,5%<br>Pudrat ishlarining hajmini 471,5 mlrd. so'mga, o'sish sur'atini 110,5%<br>Hizmatlarni hajmini 475,6 mlrd. so'mga, 112,6 %ga bo'lishini ta'minlash.<br>2. Iqtisodiy o'sish sur'atlarini har chorakda tahlil qilib, muhokama qilib borish. | Amaliy chora-tadbirlar | 2023 yil davomida<br><br>2023 yil har chorak davomida | – | Tuman hokimining o'rinbosarlari **A.Bo'riev, Sh.Rustamov, R.Azimov, F.Yodgorov** | Tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limi, Investisiyalar va tashqi savdo bo'limi **J.Nasriddinov,** Statistika bo'limi **Sh.Shukurov,** manfaatdor korxona va tashkilotlar |
| **22-maqsad: Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 barobar oshirish** | | | | | | | |
| 9. | **46-band:**<br>Umumiy qiymati 16,5 mln dollarlik 40 dan ziyod loyihani ishga tushirishni ta'minlash. | **1.** Tumanda umumiy qiymati **16,5 mln. dollarlik 40 ta hududiy investiya** loyihalarni **tarmoq jadvallari**da amalga oshiriladigan ishlarni o'z vaqtida bajarilishini tashkil etish.<br>**2.** Mazkur loyihalar doirasida bajariladigan ishlarni monitoringini olib borish.<br>**3.** Loyihalarni amalga oshirishda yuzaga keladigan muammoli masalalarni mas'ullar bilan muhokama etib, ularni bartaraf etish choralarini ko'rish.<br>**4.** Loyihalar bo'yicha respublika darajasida ko'rib chiqiladigan masalalarni Hukumat komissiyasiga kiritib borish. | Amaliy chora-tadbirlar | 2023 yil mart<br><br>har oy yakunida<br><br>Doimiy<br><br>Belgilangan muddatlarda | – | Investitsiyalar va tashqi savdo bo'limi | Tuman hokimi o'rinbosari **R.Azimov,** Investitsiyalar va tashqi savdo bo'lim boshlig'I o'rinbosari **J.Nasriddinov,** Tuman tijorat banklari, korxona va tashkilotlar |

| T/r | Dasturning tegishli bandlari, ustuvor yo'nalishlar, maqsadlar va vazifalari | Amalga oshirish mexanizmlari | Amalga oshirish shakli | Muddati | Amalga oshirish xarajatlari (moliyalashtirish manbalari) | Nazorat qiluvchilar | Mas'ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 10. | **55-band:**<br>Mahalliy ishlab chiqarish korxonalari o'rtasida **tarmoqlararo sanoat kooperasiyasi aloqalarini yanada kengaytirish.** | Viloyatda "Tog'-kon metallurgiya-si, elektrotexnika, kimyo sanoati va qurilish materiallari bo'yicha" hududiy tarmoqlararo sanoat yarmarkasini o'tkazish tadbirlari-ga tumandan tadbirkorlarini qatnashishini ta'minlash. Bunda:<br>hududiy tarmoqlararo sanoat yarmarkalari va respublika **sanoat yarmarkalarida mahalliy sanoat ishlab chiqaruvchi korxonalarini jalb etilishini ta'minlash;** | CHora-tadbirlar rejasi | 2023 yil aprel | – | Tuman hokimining yordamchisi **D.Nazarov** | Tuman hokimi o'rinbosari **R.Azimov,** Investitsiyalar va tashqi savdo bo'lim boshlig'I o'rinbosari **J.Nasriddinov** |
| 11. | **56-band:**<br>Ichki va tashqi bozorlarda **talab yuqori bo'lgan yangi turdagi, respublikada ishlab chiqarilmaydigan mahsulotlarni mahalliylashtirish**. | **1.** Tumanning salohiyati, geografik joylashuvi hamda tabiiy va mineral resurslarini hisobga olgan holda yangi turdagi yuqori texnologik, zamonaviy, energiya tejamkor mahsulotlar ishlab chiqarishni o'zlashtirish dasturiga taklif kiritish.<br>**2.** Mahalliylashtirish dasturi doirasida kamida **2,0 mlrd so'm**lik mahsulotlar ishlab chiqarish. | CHora-tadbirlar dasturiga takliflarni Investitsiyalar sanoat va savdo bo'limiga kiritish,<br>Amaliy chora-tadbirlar | 2023 yil mart<br><br>2023 yil davomida | – | Investitsiyalar va tashqi savdo bo'limi | Tuman hokimi o'rinbosari **R.Azimov,** Investitsiyalar va tashqi savdo bo'lim boshlig'I o'rinbosari **J.Nasriddinov** Iqtisodiyot va moliya bo'lim boshligi S.Haydarov |
| **24-maqsad: Iqtisodiyotni elektr energiyasi bilan uzluksiz ta'minlash hamda "YAshil iqtisodiyot" texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy etish, iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20 foizga oshirish va havoga chiqariladigan zararli gazlar hajmini 10 foizga qisqartirish** | | | | | | | |
| 12. | **68-band:**<br>**Kichik hajmdagi qayta tiklanuvchi energiya manbalari**dan foydalanishni keskin oshirish. | 2023 yilda davlat organlari va tashkilotlari, mahalliy hokimliklar tomonidan **qayta tiklanuvchi energiya manbalarini o'rnatish** bo'yicha manzilli dasturga hudud salohiyatidan kelib chiqib takliflarni tayyorlash.<br>Belgilangan reja ko'rsatkichlarini ta'minlab borish. | Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasiga takliflarni ishlab chiqib Energetika vazirligiga kiritish | 2023 yil aprel<br><br>Yil davomida | – | Tuman hokimi o'rinbosarlari **A.Bo'riyev, Sh.Rustamov** | Tuman hududiy elektr tarmoqlari korxonasi, manfaatdor korxona va tashkilotlar,<br>tuman hokimligi |
| **26-maqsad: Mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish,<br>kelgusi besh yilda 120 milliard AQSH dollari, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralarini ko'rish** | | | | | | | |

| T/r | Dasturning tegishli bandlari, ustuvor yo'nalishlar, maqsadlar va vazifalari | Amalga oshirish mexanizmlari | Amalga oshirish shakli | Muddati | Amalga oshirish xarajatlari (moliyalashtirish manbalari) | Nazorat qiluvchilar | Mas'ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 13. | **73-band:** Respublikaning sanoat va ishlab chiqarish salohiyatini oshirish, iqtisodiyot tarmoqlari-ga **xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni kengaytirish orqali hududlarda** yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish. | **1.** T**uman**da **2,5 mln** dollarlik xorijiy investitsiyani o'zlashtirish.<br><br>**2.** Davlat investitsiya dasturidagi **1 ta** ishlab chiqarish ob'ektlarini o'z vaqtida ishga tushirilishini tashkil etish. | Amaliy chora-tadbirlar | 2023 yil davomida | **8,6 mln dollar** investiyasiyalar *(shundan: o'z mablag'i **5,2 mln. doll**, bank krediti **0,9 mln. doll**, xorijiy investitsiya va kreditlar **2,5 mln. doll**)* | Investitsiyalar va tashqi savdo bo'limi | Tuman hokimi o'rinbosari **R.Azimov,** Investitsiyalar va tashqi savdo bo'lim boshlig'I o'rinbosari **J.Nasriddinov** |
| 14. | **75-band:** 2023 yildan boshlab har bir hokim o'z tumaniga **40-50 million dollar** xususiy investitsiya olib kelishini tashkil etish. | **1.** Tumanda, investitsiya loyihalari kesimida manzilli **loyihalar ro'yxati**ni shakllantirish va tasdiqlash.<br>**2.** Investitsiyalarni o'zlashtirish bo'yicha **oyma-oy grafiklar** ishlab chiqish, ularni tasdiqlash.<br>**3.** Xususiy investitsiyalar hajmi kam bo'lganda qo'shimcha investitsiya loyihalarini shakllantirish va amalga oshirilishini tashkil etish. | Amaliy chora-tadbirlar | 2023 yil mart<br><br>2023 yil mart<br><br>Doimiy | – | Investitsiyalar va tashqi savdo bo'limi | Tuman hokimi o'rinbosari **R.Azimov,** Investitsiyalar va tashqi savdo bo'lim boshlig'I o'rinbosari **J.Nasriddinov,** Tuman tijorat banklari, korxona va tashkilotlar |
| 15. | 2023 yilda ishga tushirila-digan hududiy investitsiya loyihalarini amalga oshirish. | 2023 yilda ishga tushiriladigan **40 ta** hududiy investitsiya loyihalarini amalga oshirish va monitoringini yuritib borish | tarmoq jadvallarga asosan | 2023 yil davomida | **188,6 mlrd so'm** *(shundan: o'z mablag'i **118,9 mlrd so'm**, bank krediti **15,0 mlrd so'm**, xorijiy investitsiya 2,0 **mln. doll xorijiy kredit 2,6 mln doll**)* | Investitsiyalar va tashqi savdo bo'limi | Tuman hokimi o'rinbosari **R.Azimov,** Investitsiyalar va tashqi savdo bo'lim boshlig'I o'rinbosari **J.Nasriddinov,** Tuman tijorat banklari, korxona va tashkilotlar |
| **27-maqsad: Iqtisodiyotda moliyaviy resurslarni ko'paytirish maqsadida, kelgusi 5 yilda fond bozori aylanmasini 200 million AQSH dollaridan 7 milliard AQSH dollariga yetkazish** | | | | | | | |

| T/r | Dasturning tegishli bandlari, ustuvor yo'nalishlar, maqsadlar va vazifalari | Amalga oshirish mexanizmlari | Amalga oshirish shakli | Muddati | Amalga oshirish xarajatlari (moliyalashtirish manbalari) | Nazorat qiluvchilar | Mas'ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 16. | **77-band:**<br>Xususiylashtirish dasturi doirasida korxonalar savdoga chiqarish. | Davlat ishtirokidagi korxonalar, xo'jalik faoliyatini amalga oshiruvchi davlat muassasalari va davlat ko'chmas mulk ob'ektlarini davlatda saqlab qolish mezonlaridan kelib chiqib **"sot yoki tushuntir" tamoyili** asosida davlat ishtiroki-dagi korxonalar sonini keskin qisqartirish hamda davlat aktivlarini ommaviy savdolar orqali xususiylashtirishni nazarda tutuvchi qaror loyihasiga takliflar ishlab chiqish. | Normativ-huquqiy hujjat loyihasiga takliflarni Davlat aktivlari agentligiga kiritish | 2023 yil aprel | Hisob-kitoblarga ko'ra | Tuman hokimining birinchi o'rinbosari **A.Bo'riyev** | Iqtisodiyot va moliya bo'limi **S.Haydarov** |
| ***28-maqsad: Respublikaning eksport salohiyatini oshirish orqali 2026 yilda*** **respublika eksport hajmlarini 30 mlrd AQSH dollariga yetkazish** | | | | | | | |
| 17. | **84-band:**<br>2023 yilda tayyor mahsulotlar eksportini 6,6 mln dollarga yetkazish. | **1.** Tumanda aniq muddatlar kesimida **oyma-oy eksportga yuklash grafiklarini ishlab chiqish,** tasdiqlanishini ta'minlash hamda ijroga qaratish.<br>**2.** Eksport prognoz ko'rsatkichlari-ning ijrosini ta'minlash yuzasidan amalga oshirilayotgan chora-tadbir-larning natijadorligini tahlil qilib borish, mavjud muammoli masalalarni aniqlash va bartaraf etish choralarini ko'rib borish.<br>**3.** Eksport prognozi ijrosini ta'minlash, korxonalarga zaruriy amaliy yordam berish bo'yicha eksportchi korxonalarga tarmoqlar, tijorat banklari va hududlardan mas'ul rahbarlarni biriktirish**.**<br>**4.** Eksportchi korxonalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash choralarini ko'rish.<br>**5.** Eksport faoliyati uzluksizligini ta'minlash maqsadida eksportoldi moliyalashtirish uchun zarur kredit mablag'larini ajratilishida amaliy yordam ko'rsatish. | Amaliy chora-tadbirlar | Har chorakda<br><br>Har oyda kamida 1 marta<br><br>2023 yil mart<br><br>2023 yil davomida<br><br>2023 yil davomida | – | Investitsiyalar va tashqi savdo bo'limi | Tuman hokimi o'rinbosari **R.Azimov,** Investitsiyalar va tashqi savdo bo'lim boshlig'I o'rinbosari **J.Nasriddinov,** Tuman tijorat banklari, korxona va tashkilotlar |

| T/r | Dasturning tegishli bandlari, ustuvor yo'nalishlar, maqsadlar va vazifalari | Amalga oshirish mexanizmlari | Amalga oshirish shakli | Muddati | Amalga oshirish xarajatlari (moliyalashtirish manbalari) | Nazorat qiluvchilar | Mas'ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 18. | **85-band:**<br>"**Yangi O'zbekiston – raqobatbardosh mahsulotlar yurti**" dasturini davom ettirish. | **1.** Eksportni qo'llab-quvvatlash bo'yicha yaratilgan imkoniyatlarni keng targ'ib qilish orqali tadbirkorlik sub'ektlarini eksport faoliyatiga faol jalb qilish.<br>**2.** Investisiya dasturlari doirasida ishga tushirilgan yangi korxonalarni eksport faoliyatiga jalb qilish.<br>**3.** "YAngi O'zbekiston–raqobatbardosh mahsulotlar yurti" dasturi doirasida **2023 yilda 3 ta** eksportchini qo'shimcha qo'llab-quvvatlash va ularni rag'batlantirish choralarini ko'rish.<br>**4**. Mahalliy korxonalarning tashqi bozorlarga chiqishiga yo'l ochib berish maqsadida "tadbirkordan – eksportyorgacha" tamoyili asosida **chora-tadbirlar dasturi**ga muvofiq mahalliy korxonalarni tashqi bozorlarga chiqishiga ko'maklashish. | Amaliy chora-tadbirlar | Tadbirlar grafigiga muvofiq<br><br>2023 yil davomida, har chorak yakuni bo'yicha hisobot kiritgan holda<br><br>2023 yil davomida, har chorak yakuni bo'yicha hisobot kiritgan holda | Hisob-kitoblarga ko'ra | Investitsiyalar va tashqi savdo bo'limi | Tuman hokimi o'rinbosari **R.Azimov,** Investitsiyalar va tashqi savdo bo'lim boshlig'I o'rinbosari **J.Nasriddinov,** Tuman tijorat banklari, korxona va tashkilotlar |
| 19. | **87-band:**<br>Eksport qiluvchilarga **transport** va **boshqa xarajatlarni kompensasiya qilish** ishlarini davom ettirish. | **1.**Eksport qiluvchilarning transport va boshqa xarajatlarini kompensasiya qilish tizimi to'g'risida tadbirkorlik sub'ektlarining xabardorligini oshirish.<br>**2.** Eksportni rag'batlantirish agentiligining buyurtmalariga asosan zarur subsidiya mablag'larini ajratib borish. | Amaliy chora-tadbirlar | Doimiy ravishda<br><br>Buyurtmaga asosan | Hisob-kitoblarga ko'ra | Investitsiyalar va tashqi savdo bo'limi | Tuman hokimi o'rinbosari **R.Azimov,** Investitsiyalar va tashqi savdo bo'lim boshlig'i o'rinbosari **J.Nasriddinov,** Tuman tijorat banklari, korxona va tashkilotlar |
| **30-maqsad: Qishloq xo'jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermyerlar daromadini kamida 2 baravar oshirish, qishloq xo'jaligining yillik o'sishini kamida 5 foizga yetkazish** | | | | | | | |

| T/r | Dasturning tegishli bandlari, ustuvor yo'nalishlar, maqsadlar va vazifalari | Amalga oshirish mexanizmlari | Amalga oshirish shakli | Muddati | Amalga oshirish xarajatlari (moliyalashtirish manbalari) | Nazorat qiluvchilar | Mas'ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 20. | **98-band:**<br>2023 yilda suv ta'minoti yaxshi bo'lgan **43** gektargacha qo'shimcha ekin maydonlarini dehqonchilik ko'nikmalariga ega bo'lgan, shu jumladan **"Temir daftar", "Ayollar daftari"** va **"YOshlar daftari"**ga kiritilgan aholiga ajratish hisobidan qariyb **56 ta** yangi dehqon xo'jaliklarini tashkil etish. | **1.** Tumanda joriy yilda **43 gektar** er maydonlari suv ta'minoti tizimi yaxshi bo'lgan, aholi yashash joylariga yaqin bo'lgan konturlar yaxlitligi buzilmaydigan yerlarni tanlab olinib, **56 ta dehqon xo'jaliklarini tashkil etish** uchun ajratib berish.<br>**2.** Dehqon xo'jaliklariga ajratilgan er maydonlarida hududlar ehtiyojlari uchun zarur bo'lgan eksportbop va bozorbop qishloq xo'jaligi ekinlari ekilishini ta'minlash.<br>**3.** Sabzavot, poliz, dukkakli, moyli va kartoshka ekinlarini intensiv usulda ekish ishlarini tashkil etish.<br>**4.** Kooperasiya tizimi asosida mahsulot etishtirish va sotishni yo'lga qo'yish. | Amaliy chora-tadbirlar | 2023 yil davomida | Tashabbuskorlar mablag'lari | Qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinbosari **F.Yodgorov** | Qishloq xo'jaligi bo'limi **A.Allayev,** Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa er egalari kengashi **I.Xoliqov,** Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi tuman bo'limi **H.Qarshiboyev** |
| 21. | **103-band:**<br>Qishloq xo'jaligining yillik **o'sish sur'atlarini** kamida **4 foizga** yetkazish. | 2023 yilda tuman qishloq xo'jaligining yillik **o'sish sur'atlarini** kamida **4 foizga** yetkazish. Buning uchun o'sish sur'atini **dehqonchilikda** o'rtacha **5 foiz**ga va **chorvachilikda 3,8 foizga** oshirish choralarini ko'rish.<br>Bunda **62,1 ming** tonna asosiy turdagi meva-sabzavot, poliz, kartoshka mahsulotlari, jumladan, **22,1 ming** tonna sabzavot, **9,4 ming** tonna kartoshka, **11,47 ming** tonna poliz, **13,5 ming**. tonna meva va **5,6 ming** tonna uzum mahsulotlarini etishtirish nazarda tutiladi. | CHora-tadbirlar dasturi | 2023 yil mart | Hisob-kitoblarga ko'ra | Tuman hokimining Qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinbosari **F.Yodgorov** | Qishloq xo'jaligi bo'limi **A.Allayev,** |
| 22. | **104-band:**<br>Eksportbop mahsulotlar etishtirish hamda meva-sabzavotchilikni rivojlantirish, intensiv bog'lar maydonini **1,5 baravar** va issiqxonalarni **1,2 baravar** ko'paytirish. | **1. 340 ming** dona meva ko'chatlari bilan ta'minlash.<br>**2.** 2023 yilda **200** gektar tokzor va **450** gektar yangi bog'lar barpo etish va buning uchun **340 ming** dona ko'chatlar yetkazib berish. | Chora-tadbirlar dasturi | 2023 yil mart | Loyiha tashabbuskor-lari va tijorat banklari mablag'lari | Tuman hokimining Qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinbosari **F.Yodgorov** | Qishloq xo'jaligi bo'limi **A.Allayev** |

| T/r | Dasturning tegishli bandlari, ustuvor yo'nalishlar, maqsadlar va vazifalari | Amalga oshirish mexanizmlari | Amalga oshirish shakli | Muddati | Amalga oshirish xarajatlari (moliyalashtirish manbalari) | Nazorat qiluvchilar | Mas'ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 23. | **108-band:** Qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtirish hajmini oshirish maqsadida irrigasiya-meliorasiya ob'ektlarini qurish, rekonstruksiya qilish hamda sug'orish quduqlarini o'rnatish orqali jami **700 gektar** yer maydonlarini qayta foydalanishga kiritish va qishloq xo'jaligi ekinlarini joylashtirish. | **1.** Tumanda 2023 yilda **700** gektar lalmi va yaylov yyerlarni o'zlashtirish bo'yicha tashabbuskorlar tomonidan amalga oshiradigan tadbirlar ko'rsatib o'tilgan hamda qo'shimcha ravishda qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish imkoniyatini yaratish nazarda tutilgan manzilli ro'yxatlarni ishlab chiqish va tasdiqlash.<br>**2.** Manzilli ro'yxat asosida belgilangan tadbirlarni amalga oshirishni tashkil etish. | Amaliy chora-tadbirlar | 2023 yil mart<br><br>2023 yil davomida | Hisob-kitoblarga ko'ra tashabbuskor-larning o'z mablag'lari | Tuman hokimining Qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinbosari **F.Yodgorov** | Qishloq xo'jaligi bo'limi **A.Allayev,** Quyi Zarafshon irrigasiya tizimlar havza bo'limi huzuridagi NS va EB Nurota uchastkasi **Sh.Yalg'ashev**, Iqtisodiyot va moliya bosh bo'limii **S.Haydarov** |
| **32-maqsad: Chorvachilik ozuqa bazasini kengaytirish va ishlab chiqarish hajmini 1,5-2 baravar ko'paytirish** | | | | | | | |
| 24. | **114-band:** **Chorvachilikda yillik o'sish sur'atini** o'rtacha **1,2 foizga** yetkazish. | Quyidagilarni nazarda tutuvchi dastur ishlab chiqish:<br>chorvachilikda o'sish sur'atini o'rtacha 1,2 foizga oshirish;<br>qoramollar bosh sonini 49 ming boshga, shundan sigirlar bosh sonini 21 ming boshga, go'sht ishlab chiqarishni 24,3 ming tonnaga, sut 43 ming tonnaga yetkazish;<br>18,7 mln dona tuxum va 1,2 tonna parranda go'shti ishlab chiqarish. | Chora-tadbirlar dasturi | 2023 yil mart | – | Qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha hokim o'rinbosari **F.Yodgorov** | Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limi **B.Bobomurodov,** tijorat banklari |

| T/r | Dasturning tegishli bandlari, ustuvor yo'nalishlar, maqsadlar va vazifalari | Amalga oshirish mexanizmlari | Amalga oshirish shakli | Muddati | Amalga oshirish xarajatlari (moliyalashtirish manbalari) | Nazorat qiluvchilar | Mas'ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 25. | **115-band:** Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlarini **oshirish.** | 1. Chorva mollari bosh sonini ko'paytirish va mahsuldorligini oshirish bo'yicha yangi loyihalarni amalga oshirish. Bunda: chorvachilik sohasida 4 ta loyihani amalga oshirish bo'yicha moliyalashtirish manbalari aniq ko'rsatilgan manzilli dasturni ishlab chiqish; sun'iy urug'lantirishga jalb etilgan 5 nafar texnik oseminatorlardan 15 foizining bosqichma bosqich grafik asosida malakasini oshirish; aholi xonadonlaridagi 3,8 ming bosh sigir va urug'lantirish yoshidagi tanalarni sun'iy urug'lantirish. | Chora-tadbirlar dasturi | 2023 yil mart | Xalqaro moliya institutlari va tijorat banklari kreditlari va tashabbuskorlar o'z mablag'lari | Qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha hokim o'rinbosari **F.Yodgorov** | Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limi **B.Bobomurodov,** tijorat banklari |
| | | **2.** Baliqchilikni rivojlantirish va baliq etishtirish hajmini ko'paytirish bo'yicha chora-tadbirlarni belgilash. Bunda: hududlardagi hosildorligi past bo'lgan sun'iy suv havzalarini bosqichma-bosqich intensivlashtirish va baliq etishtirish hosildorligini oshirish; | Chora-tadbirlar dasturi | 2023 yil mart | Xalqaro moliya institutlari va tijorat banklari kreditlari va tashabbuskorlar o'z mablag'lari | Tuman hokimining Qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinbosari **F.Yodgorov** | Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limi **B.Bobomurodov,** tijorat banklari |
| | | **3.** Asalari oilalari sonini ko'paytirish va mahsuldorligini oshirish. Bunda: 2023 yilda **asalari** oilalari sonini **450 donaga** yetkazish va **2,6 tonna** asal etishtirishni tashkil etish. | Chora-tadbirlar dasturi | 2023 yil mart | Bank kreditlari va tashabbuskorlar o'z mablag'lari | Tuman hokimining Qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinbosari **F.Yodgorov** | Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limi **B.Bobomurodov,** tijorat banklari |
| 26. | **116-band:** Chorvachilik **ozuqa bazasi mustahkamlash.** | Quyidagilarni nazarda tutuvchi chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish: chorva ozuqa maydonini 1,5 ming gektarga yetkazish; | Chora-tadbirlar dasturi | 2023 yil mart | Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar mablag'lari, shu jumladan bank kreditlari | Tuman hokimining Qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinbosari **F.Yodgorov** | Qishloq xo'jaligi bo'limi **A.Allayev,** Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limi **B.Bobomurodov,** shahar va tuman hokimliklari |

| T/r | Dasturning tegishli bandlari, ustuvor yo'nalishlar, maqsadlar va vazifalari | Amalga oshirish mexanizmlari | Amalga oshirish shakli | Muddati | Amalga oshirish xarajatlari (moliyalashtirish manbalari) | Nazorat qiluvchilar | Mas'ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| **33-maqsad: Hududlarni mutanosib rivojlantirish orqali hududiy iqtisodiyotni 1,4 — 1,6 baravarga oshirish** | | | | | | | |
| 27. | **118-band:**<br>2023 yilda aholi tomo-nidan taklif berilgan **suv, elektr energiyasi, yo'l, maktab kabi yo'nalishlar, shuningdek mahallalar infratuzilmasini yaxshilash** bo'yicha loyiha-larni amalga oshirish.<br>Bunda, ajratilgan mablag'lar va amalga oshirilgan ishlar yuzasidan **keng jamoat-chilikni xabardor** qilish. | "Ochiq byudjet" axborot portali orqali 2023 yilda yo'naltirilishi nazarda tutilgan mablag'lar doirasida, Tashabbusli byudjet loyixasi 2023-yilda tuman maxalliy xarajatlarining 5 foiz mablag'lari hisobidan 7417,6 mln.so'm, maxalliy byudjetning ko'shimcha manbalari xisobidan 1950,0 mln so'm jami 9367,6 mln.so'm mablag yunaltirilishi belgilab olingan. Mening yo'lim loyixasi buyicha tuman maxalliy byudjeti parametrlarida 1500,0 mln.so'm mablag ajratilgan.<br>Aholining yashash sharoitlarini yaxshilash maqsadida, mahallalar infratuzilmasini rivojlantirish dasturini davom ettirish. | Amaliy chora-tadbirlar | 2023 yil davomida | **10867,6 млн so'm**<br>Davlat byudjeti mablag'lari | Tuman hokimi o'rinbosarlari **A.Bo'riyev, Sh.Rustamov** | Iqtisodiyot va moliya bo'limi |
| 28. | **119-band:**<br>**12 ta** ko'p kvartirali uy-joylarni **mukammal va joriy ta'mirlash ishlarini** amalga oshirish. | **12 ta** ko'p kvartirali uy-joylarni **jumladan 7 ta** ko'p kvartirali uylarning tom qismini joriy va mukammal ta'mirlash, **9 ta** kirish yo'laklari, **4 ta** uylarning fasad qismi, **3 ta** uylarning ichki muhandislik, **8 ta** uylarning yerto'la qismi hamda **37 dona** elektr taqsimlovchi shitlarni ta'mirlash bo'yicha manzilli ro'yxatni shakllantirish va unda belgilangan tadbirlarni amalga oshirish. | Amaliy chora-tadbirlar | 2023 yil davomida | **1 mlrd. 603 mln so'm**<br>Respublika byudjeti mablag'lari hisobidan | Tuman hokimi o'rinbosari **Sh.Rustamov** | Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bo'limi **J.Ahmatqulov**, tuman hokimligi |

| T/r | Dasturning tegishli bandlari, ustuvor yo'nalishlar, maqsadlar va vazifalari | Amalga oshirish mexanizmlari | Amalga oshirish shakli | Muddati | Amalga oshirish xarajatlari (moliyalashtirish manbalari) | Nazorat qiluvchilar | Mas'ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 29. | **120-band:** Aholi uchun yangi uy-joylar qurish hajmini **oshirib,** imtiyozli shartlar asosida **ipoteka kreditlari berishni** davom ettirish. | **1.** Joylardagi aholining uy-joyga bo'lgan talabidan kelib chiqib, yangi uy-joylar qurishni davom ettirish bo'yicha manzilli dasturlarni shakllantirishga takliflarni ishlab chiqish.<br>Bunda, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalangan holda, elektr va issiqlik energiyasi uchun ehtiyojning bir qismini qoplashni nazarda tutish.<br>**2.** 60 ta uy-joy sotib olish va 50 ta yakka tartibda uy-joy qurish uchun boshlang'ich to'lov va ipoteka kreditining bir qismi qoplashga maqsadida subsidiyalar ajratish.<br>**3.** Uy-joylar qurilayotgan massivlarning ijtimoiy infratuzilmasi va muhandislik-kommunikasiya tarmoqlarini davlat byudjeti hisobidan qurilishini ta'minlash. | Normativ-huquqiy hujjat loyihasiga takliflarni Iqtisodiyot va moliya vazirligiga kiritish | 2023 yil aprel<br><br>Yil davomida<br><br>Yil davomida | Loyiha-smeta hujjatlari asosida<br><br>tijorat banklari kreditlari, tadbirkorlik sub'ektlari mablag'lari **3.7 mlrd so'm** Respublika byudjeti mablag'lari<br><br>Loyiha-smeta hujjatlari asosida | Tuman hokimi o'rinbosarlari **A.Bo'riyev, Sh.Rustamov** | Iqtisodiyot va moliya bo'limi**,** Qurilish bo'limi **J.Ahmatqulov**, Tuman tijorat banklari |
| **34-maqsad: Hududlarning muhandislik-kommunikasiya va ijtimoiy infratuzilma tizimini hamda xizmat ko'rsatish va servis sohalarini rivojlantirish** | | | | | | | |
| 30. | **124-band:** Davlat byudjetini shakllantirishda, shu jumladan, **ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish** dastu-ridagi ob'ektlarni rekonstruksiya qilish, **mukammal ta'mirlash va jihozlash** bo'yicha **manzilli ro'yxatlarni** shakllantirishda fuqarolar ishtirokini kengaytirish. | Davlat byudjetini shakllantirishda, shu jumladan, ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturidagi ob'ektlarni rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash bo'yicha manzilli dasturlarini shakllantirishda fuqarolarning xabardorligi va faol ishtirokini ta'minlash chora-tadbirlarini nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjat loyihasiga takliflarni ishlab chiqish. | Normativ-huquqiy hujjat loyihasiga takliflarni Iqtisodiyot va moliya vazirligiga kiritish | 2023 yil sentyabr | – | Viloyat hokimi o'rinbosarlari **A.Bo'riyev, Sh.Rustamov** | Iqtisodiyot va moliya bo'limi **S.Haydarov,** Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi**,** tuman hokimligi |

| T/r | Dasturning tegishli bandlari, ustuvor yo'nalishlar, maqsadlar va vazifalari | Amalga oshirish mexanizmlari | Amalga oshirish shakli | Muddati | Amalga oshirish xarajatlari (moliyalashtirish manbalari) | Nazorat qiluvchilar | Mas'ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 31. | **127-band:** Tumanlardagi markaziy ko'chalar, chorrahalar va aholi gavjum joylar atroflarida rivojlangan davlatlar tajribasi asosida zamonaviy **sanitariya-gigiena shoxobchalari tarmog'ini yaratish.** | **1.** Barcha shahar va tumanlardagi markaziy ko'chalar, chorrahalar va aholi gavjum **maskanlarda zamonaviy sanitariya-**gigiena shoxobchalari joylashtiriladigan joylarni aniqlash.<br>**2.** Zamonaviy sanitariya-gigiena shoxobchalari tarmog'ini tashkil etish ishlariga mahalliy va xorijiy tadbirkorlik sub'ektlarini keng jalb qilish.<br>**3.** Mazkur yer maydonlarini tadbirkorlik sub'ektlariga ajratish hamda ularning infratuzilma tarmoqlariga (suv, elektr energiyasi, oqova tarmog'iga) ulanishiga ko'maklashish.<br>**4.** Tumanda **5 ta** sanitariya-gigiena shoxobchalarini tashkil etish. | Amaliy chora-tadbirlar | 2023 yil davomida | Hisob-kitoblarga ko'ra | Tuman hokimi o'rinbosarlari **A.Bo'riyev, Sh.Vafoyev, Sh.Rustamov** | Qurilish bo'limi **J.Ahmatqulov,** tuman hokimligi |
